



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

N.Allayarova,  
S.Napasova

SamDU, talabalari

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'ZLASHMA SO'ZLARNI O'RGATISH METODIKASI

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tilshunosligida o'zlashma so'zlarning roli va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan hamda boshlang'ich sinflarda o'zlashma so'zlarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Leksika, so'z o'zlashtirish, semantika, interfaol metod, modulli texnologiya, "Tushunchalar tahlili".

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan.

O'zlikni anglashda tilning roli muhimdir. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ong orqali idrok qilish, obyektiv borliqqa oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Insoniyat ong-tafakkuri o'sishi, fan-texnika taraqqiyoti, fan yutuqlarining globallashuvi, ularning amaliyotga tatbiq etilishi, olamshumul ixtiro va texnologiyalarning ommaga tez, oson yetib



borishida tilga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib, tilshunoslar oldiga yangi, istiqbolli va o'z navbatida murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so'z omuxtalashish jarayoni jadallashmoqda. Bunday jarayon o'zbek tili leksikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, tilimizning o'zlashma so'zlar hisobiga boyishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, til millatning ma'naviyati, madaniyati bilan bevosita va bilvosita aloqadordir. Dunyo tillari orasida sof tilning o'zi yo'q ekan, ma'lum bir tilning tarovati o'z til so'zlari hisobiga yashashi bilangina belgilanmaydi. Harakatdagi tillarning ma'lum darajada omuxtalashishi, birining ikkinchisiga ta'sir etib borishi til jarayoni uchun barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Tilning ma'naviyat va madaniyat tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi nuqtayi nazaridan o'zlashma so'z va uning zamirida o'zlashayotgan ma'lum bir millat urf-odat va an'alariga ham befarq qarab bo'lmaydi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, o'zbek xalqining o'z erkiga, ozodligiga erishishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirdi, o'zbek tilining mavqeyi, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotdagi, davlat idoralarida ish yuritishdagi va matbuotdagi o'rniga bo'lgan ahamiyat kuchaydi. Tilimizning go'zal imkoniyatlaridan unumli foydalanish, uning ifodaviyligi, jozibadorligini ko'rsatib berish, turli sohalarga oid xalqaro miqyosda umumlashayotgan so'z va iboralarni tilimiz qonuniyatlariga mos holda olib kirish ishlariga alohida e'tibor berila boshladi. Tilning leksikasida – lug'at boyligida sodir bo'ladigan o'zgarishlar esa aksariyat hollarda muayyan bir zamon doirasida va ijtimoiy omillarga bog'liq holatda bo'ladi. Aytish lozimki, jamiyat hayotida yuz beradigan har qanday o'zgarish va yangilanishlar tabiiy ravishda, eng avvalo, tilning lug'at boyligida o'zining aniq aksini topadi.

Bugungi jadal globallashuv jarayonlarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning rivoji misli ko'rilmagan ko'lamlarni qamragan bir davrda bir tildan boshqasiga so'z o'tmasligini tasavvur etishning o'zi mushkul. Boshqa tildan



soʻz olganda albatta, muayyan meʼyor saqlanishi shart, shubhasizki, bu meʼyor tilning yaxlit soʻz zaxirasini mehvaridan chiqarib yubormaslik uchun xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda hayotimizni texnika-texnologiya va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Fan-texnika kundan-kunga rivojlanayotgan ayni damda taʼlim sohasida ham katta oʻzgarishlar kuzatilmoqda. Maktabdagi darsliklar ham yangi avlod uchun hozirgi kun talabiga mos ravishda chiqarilmoqda. Taʼlim jarayonidagi innovatsion oʻzgarishlar, taʼlim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita oʻqituvchi faoliyatini yangilash va oʻzgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha oʻrganilgan. Bugungi darsliklar, oʻquv mashgʻulotlar oʻquvchini mustaqil fikrlashga, bahs munozaraga, oʻzini-oʻzi tahlil eta olishga, egallagan bilimlarini amaliyotda qoʻllay olishga, bola tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, boshlangʻich sinflarning ona tili va oʻqish darsliklari birlashtirildi, yangi avlodga moslashtirildi hamda “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsligiga oʻzgartirildi. Bu darsliklarga hozirgi kun talabiga mos mavzulashtirilgan darslar kiritildi. Shuning hisobiga yangi darsliklarga tilimizga kirib kelayotgan yangi soʻzlar ham kiritilmoqda.

3-sinf “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsligining “Aqlli yordamchi”, “Salomatlik garovi”, “Virus nima?” mavzularida chet tilidan kirib kelgan soʻzlar ishlatilgan. “Salomatlik garovi” mavzusida hozirgi kunda oʻquvchilarning sevimli taomlariga aylangan tez-pishar ovqat “fastfud” soʻzi ishlatilgan. Bu soʻz ingliz tilidan kirib kelgan oʻzlashma soʻzdir. Fastfud inglizcha “fast” - tez va “food” - ovqat soʻzlaridan olingan. “Aqlli yordamchi” mavzusida esa dunyo miqyosida globallashtirilgan zamonaviy texnologiyalarga oid soʻzlar ishlatilgan. Masalan, virtual, noutbuk, smartfon, planshet. Bu soʻzlarni oʻquvchilarga oʻrgatishda “Tushunchalar tahlili” metodi orqali tushuntirilsa, chetdan kirib kelgan soʻzlarni oʻzlashtirish oson kechadi.

#### “Tushunchalar tahlili” metodi

T/r	Tushunchalar	Tushunchalar izohi
1.	Virus	2019-yil oxirida aniqlanib, 2020-yilda butun dunyo



		bo‘ylab tarqalgan, asosan nafas yo‘llarini zararlovchi yuqumli kasallik nomi.
2.	Fastfud	Ko‘zga ko‘rinmas, kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar.
3.	COVID-19	Bu o‘z batareyasining ishlash muddatiga ega bo‘lgan ko‘chma, qatlanadigan shaxsiy kompyuter.
4.	Noutbuk	Tezpishar ovqat, tamaddi qilib olish joyi

Bu metodning maqsadi: mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish va baholay olish. Bu metoddan dars oxirida, biron-bir bo‘lim tugallanganda o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish, mustahkamlash hamda o‘quvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Yangi so‘zlarni o‘zlashtirishda bu metoddan foydalanish o‘quvchilar ongiga tez, oson singadi. Bundan tashqari o‘zbekcha va chet tilidan kirib kelgan so‘zlarni xattaxtaga yoki ko‘rgazma plakatlarga aralashtirib yozgan holda o‘quvchilarga topshiriq sifatida beriladi. Masalan, quyidagi so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing: aqlli, robot, kir, sichqoncha, virtual, ko‘zoynak, smartfon, xotira, noutbuk, klaviatura, tekis, elektromobil.

O‘zbekcha so‘zlar	Chet tilidan kirib kelgan so‘zlar
Aqlli	Virtual
ko‘zoynak	Noutbuk
Sichqoncha	Robot
Xotira	Smartfon
	Klaviatura
	Eletromobil




Boshlang‘ich sinflarga dars o‘tish jarayonida o‘yin usullaridan, interfaol metodlardan, modulli texnologiyalardan, noan’anaviy dars shakllaridan foydalanish





mumkin. Bu metodlarning hammasi ham bolalarda mustaqil ishlashni, o‘z fikrini erkin bayon qila olishni, keng fikrlashni talab etadi.

Interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda o‘zaro harakat, ularning faolligi, ishtirokchilarning o‘zaro harakati, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o‘z fikrini bayon qilish kabi ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol usuldagi mashqlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’lim mazmunini o‘zlashtirish munosabatlarini kuchaytirib ikki tarafni faollashtiradi. Interfaol metodlarni qo‘llashga yondashgan o‘qitish jarayoni guruhdagi barcha o‘quvchilarning anglash va fikrlash, jarayonda ishtirok etishini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlaridan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

Berilgan so‘zlarni bir-biriga moslashtiring.

Kitob	Sutkaning yigirma to‘rt dan bir ulushiga teng vaqt va shu muddatni ko‘rsatuvchi vaqt o‘lchovi	
Kompyuter	Tana qo‘yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik.	
Bank	Ma’lum matnli varaqlardan iborat, muqovalangan, nashr etishga mo‘ljallangan asar.	



Soat	Murakkab qurilmaga ega boʻlgan elektron hisoblash mashinasi	
Daraxt	Vaqtincha boʻsh pul mablagʻlarini toʻplash, naqd pulsiz hisob-kitob qilish, korxonalariga kredit berish muassasasi.	

Oʻqitishning faol metodlaridan foydalanish dars jarayonining qiziqarli boʻlishi va unda bolalarning faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Oʻquvchilarning darsga boʻlgan qiziqishini oshirish, tafakkurini rivojlantirishda noanʼanaviy dars turlarini qoʻllash yaxshi natija beradi. Yangi dastur, yangi fan, yangi darsliklar mavjud holatimiz, oʻtgan yillar davomida taʼlimda yoʻl qoʻyilgan xatolar chuqur tahlil qilingan holda, xorijlik va oʻzimizning mutaxassislar, amaliyotchi oʻqituvchilar ishtirokida yaratilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begmatov E.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985.
2. Hamrayeva Yo. Oʻzbek tilining oʻzlashma soʻzlar oʻquv izohli lugʻati. (Maktab oʻquvchilari uchun). – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2007.
3. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida oʻzbek tili lugʻat tarkibining rivojlanish asoslari // Oʻzbek tili va adabiyoti. – T., 1994. -№ 1.



4. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. “Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi”. Toshkent, “Innovatsion – ziyo”, 2022.
5. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. Darslik. 4-sinf uchun. Toshkent- 2020
6. Mahmudov N. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar: me‘yor va milliylik // O‘zbek tili va adabiyoti. 2010. -№ 6.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 3-sinf uchun. K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.-144 b.
8. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism. Darslik. 3-sinf uchun. K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.-144 b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.